



# IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 4**

**2026**

## **BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH**

**Hasanova Malohat Nabi qizi**

Jizzax davlat pedagogika universiteti, tayanch doktoranti

### **Annotatsiya**

Mazkur tadqiqot boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan. Tadqiqotning dolzarbligi zamonaviy ta'lim tizimida mustaqil fikrlash, muammolarni tahlil qilish va turli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirish zarurati bilan izohlanadi. Ishda tanqidiy fikrlashning mohiyati, uning asosiy komponentlari hamda boshlang'ich ta'lim jarayonidagi o'rni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari o'quvchilarda mustaqil fikrlash, dalillarga asoslangan xulosalar chiqarish, o'z fikrini erkin ifodalash va boshqalarning fikriga tanqidiy yondashish ko'nikmalari shakllanishini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** tanqidiy fikrlash, boshlang'ich ta'lim, tafakkur, interfaol metodlar, muammoli ta'lim, tahlil, baholash, mustaqil fikrlash, pedagogik texnologiyalar, ta'lim faoliyati, kreativlik, ta'lim sifati.

## **РАЗВИТИЕ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ**

**Хасанова Малохат Наби кизи**

Джизакский государственный педагогический университет, базовый докторант

### **Аннотация**

Данное исследование посвящено вопросам формирования и развития навыков критического мышления у учащихся начальной школы. Актуальность исследования обусловлена необходимостью развития таких компетенций, как самостоятельное мышление, анализ проблем и принятие правильных решений в различных ситуациях в современной системе образования. В работе анализируется сущность критического мышления, его основные компоненты и роль в процессе начального образования с научно-теоретической точки зрения. По результатам исследования установлено, что учащиеся способны развивать навыки самостоятельного мышления, формулирования выводов на основе доказательств, свободного выражения собственного мнения и критического подхода к мнению других.

**Ключевые слова:** критическое мышление, начальное образование, мышление, интерактивные методы, проблемно-ориентированное обучение, анализ, оценка, самостоятельное мышление, педагогические технологии, образовательная деятельность, креативность, качество образования.

## **DEVELOPING CRITICAL THINKING IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS**

**Hasanova Malokhat Nabi qizi**

Jizzakh State Pedagogical University, Basic Doctoral Student

### **Abstract**

This study focuses on the formation and development of critical thinking skills in primary school students. The relevance of the research lies in the need to develop competencies such as independent thinking, problem analysis, and decision-making in various situations within modern

education systems. The paper analyzes the essence of critical thinking, its main components, and its role in primary education from a scientific and theoretical perspective. The findings indicate that students develop skills of independent thinking, drawing evidence-based conclusions, expressing their own opinions freely, and critically evaluating the opinions of others.

**Keywords:** critical thinking, primary education, thinking, interactive methods, problem-based learning, analysis, evaluation, independent thinking, pedagogical technologies, educational activity, creativity, quality of education.

Hozirgi kunda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar mazmunan yangi bosqichga ko'tarilib, ular o'quvchilarning faqat bilim olishiga emas, balki tafakkurini rivojlantirishga, mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishga yo'naltirilmoqda. Ayniqsa, globallashtirish sharoitida tez o'zgarib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy muhit insondan moslashuvchanlik, kreativlik va tanqidiy yondashuvni talab etmoqda. Shu sababli ta'lim jarayonida o'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish masalasi alohida dolzarflik kasb etmoqda. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi natijasida o'quvchilar turli manbalardan katta hajmdagi ma'lumotlarni qabul qilmoqda. Bunday sharoitda ularni to'g'ri saralash, ishonchliligini aniqlash, asosli xulosa chiqarish va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlari nihoyatda muhimdir. Tanqidiy fikrlash aynan shu jarayonlarning asosi bo'lib, u shaxsning intellektual rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Shu bois ushbu ko'nikmani shakllantirishni boshlang'ich ta'lim bosqichidan boshlab yo'lga qo'yish zarur hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari psixologik jihatdan faol, qiziquvchan va atrof-muhitni o'rganishga moyil bo'ladi. Bu davrda ular savol berish, kuzatish, taqqoslash va umumlashtirish orqali bilimlarni egallaydi. Aynan shu yosh bosqichida tanqidiy fikrlash elementlarini rivojlantirish uchun qulay pedagogik muhit yaratish o'quvchilarning keyingi ta'lim bosqichlaridagi muvaffaqiyatiga mustahkam zamin yaratadi. Shu bilan birga, boshlang'ich ta'limda an'anaviy yodlashga asoslangan metodlardan ko'ra, o'quvchini faol ishtirok etishga undovchi interaktiv va muammoli ta'lim texnologiyalarini qo'llash muhim ahamiyatga ega. Tanqidiy fikrlash o'z ichiga bir qator muhim komponentlarni oladi: tahlil qilish, sintezlash, baholash, dalillash, muammoli vaziyatlarni hal etish va mustaqil qaror qabul qilish. Ushbu ko'nikmalarni rivojlantirish orqali o'quvchilar nafaqat bilimlarni chuqur o'zlashtiradi, balki ularni amaliyotda qo'llash imkoniyatiga ham ega bo'ladi. Natijada ular passiv bilim oluvchidan faol va ongli ishtirokchiga aylanadi.

Shu bilan birga, boshlang'ich ta'lim amaliyotida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlar yetarli darajada tizimlashtirilmaganligi, o'qituvchilarning bu boradagi metodik tayyorgarligi har doim ham yuqori emasligi mazkur muammoning dolzarbligini yanada oshiradi. Dars jarayonida savol-javob, muhokama, klaster, "aqliy hujum", "INSERT", "baliq skeleti" kabi metodlardan samarali foydalanish orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish mumkin. Mazkur tadqiqot ishining dolzarbligi shundan iboratki, unda boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari kompleks yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi – boshlang'ich ta'lim jarayonida tanqidiy fikrlashni shakllantirishning samarali usullarini aniqlash, ularni amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlarini asoslash hamda o'qituvchilar uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Shuningdek, mazkur maqolada tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari, o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'limni tashkil etish, interfaol metodlardan foydalanish hamda ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan yondashuvlar keng yoritiladi. Bu esa, o'z navbatida, boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda tanqidiy fikrlash masalasi mamlakatimiz, MDH va xorij olimlari tomonidan keng o'rganilgan bo'lib, mazkur tushunchaning turlicha talqinlari taqdim etilgan.

Tadqiqotning mohiyati tanqidiy fikrlash tushunchasidan iborat bo'lganligi sababli, ushbu tushunchaning tarkibiy elementlari – “tanqid” va “fikrlash” tushunchalarining mazmuni va mohiyati yoritib berilgan. “Tanqid” so'zi etimologik jihatdan yunon tiliga mansub bo'lib, u “krino” – ajratmoq, farqlamoq ma'nosini anglatadi. Boshqa tillarga, jumladan, rus tiliga moslashish jarayonida uning semantik ko'lami kengayib, hozirgi kunda keng ma'noda talqin qilinadi. Rus tilshunosligida S.I. Ojegov, D.N. Ushakov, V.V. Rozanov, A.E. Bakhankov kabi tadqiqotchilar tomonidan tuzilgan lug'atlarda mazkur tushuncha “muhokama qilish”, “nimanidir baholash maqsadida tahlil qilish” hamda “biror narsa haqida fikr bildirish, kamchiliklarni ko'rsatish” sifatida talqin qilinadi.

Amerika Milliy kengashi tanqidiy fikrlashga o'rgatish bo'yicha insonning tanqidiy yondasha olish qobiliyatini idrok etish, belgilangan strategiyalarga muvofiq amalda qo'llay olish, amaliy tajribalar asosida nazorat qilish, aks ta'sir ko'rsata olish yoki egallangan ma'lumotni tushunib olish kabi aqliy jarayon deb mulohaza qiladi.

Tanqidiy fikrlash – bu nimaga ishonishni yoki qanday harakatni amalga oshirishni hal qilishga intiladigan, oqilona amalga oshiriladigan aqliy jarayondir. Tanqidiy fikrlash jarayoni intellektual qobiliyatning aniqlik, ahamiyatlilik, asoslanganlik, chuqurlik, obyektivlik, mantiq va xolislik kabi umumiy standartlarga javob berishi kerak, deb hisoblaydilar milliy kengash tadqiqotchilari. Tanqidiy fikrlash mexanizmi fikrlash va isbotlash jarayonini aniqlaydigan aqliy operatsiyalarni o'z ichiga oladi: maqsadlarni belgilash, muammolarni aniqlash, farzlarni ilgari surish, dalillarni keltirib chiqarish, ularni asoslash, oqibatlarini bashorat qilish, muqobil nuqtai nazarni qabul qilish yoki rad etish. Tanqidiy fikrlashni XXI asr ta'lim texnologiyalarining asosiy sifatlaridan biri sifatida o'rganish pedagogika, psixologiya va falsafa kesimida paydo bo'lgan ustuvor yo'nalishlardan biri deb e'tirof etish mumkin. Tanqidiy fikrlash tushunchasi haqida turli xil qarashlar, talqinlar, fikr va mulohazalar mavjud. Qator tadqiqotlarda mazkur tushuncha baholashni taqozo etganligi sababli negativ holat bilan tenglashtiriladi, boshqa tadqiqotlarda esa ushbu tushuncha “tanqidiy fikrlash”, “tahliliy fikrlash”, “ijodiy fikrlash” sifatida talqin etiladi.

Boshlang'ich ta'lim tizimida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish masalasi pedagogika va psixologiya fanlarining dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Tanqidiy fikrlash tushunchasi ilmiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. Jumladan, amerikalik olim Robert Ennis tanqidiy fikrlashni “insonning nima qilish yoki nimaga ishonish kerakligi to'g'risida oqilona va asoslangan qaror qabul qilishga yo'naltirilgan fikrlash” sifatida izohlaydi. Ushbu ta'rif tanqidiy fikrlashning asosiy mohiyatini – tahlil, baholash va qaror qabul qilish jarayonlari bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirish ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda tashkil etilishi lozim. Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kichik yoshdagi o'quvchilarda bilish jarayonlari – diqqat, xotira, tafakkur faol rivojlanadi. Jean Piaget nazariyasiga ko'ra, ushbu yoshdagi bolalar konkret operatsiyalar bosqichida bo'lib, ular ko'proq aniq misollar, taqqoslash va kuzatish orqali bilimlarni o'zlashtiradi. Demak, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda abstrakt tushunchalardan ko'ra, amaliy va vizual yondashuvlar samaraliroq hisoblanadi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish jarayoni bir necha muhim komponentlardan iborat bo'lib, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- tahlil qilish – berilgan ma'lumotni qismlarga ajratish va ularning o'zaro bog'liqligini aniqlash;
- taqqoslash – o'xshash va farqli jihatlarni aniqlash;
- baholash – axborotning ishonchliligi va ahamiyatini aniqlash;
- xulosa chiqarish – dalillar asosida yakuniy qarorga kelish;
- muammoli vaziyatlarni hal etish – turli yechim variantlarini ishlab chiqish.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida ushbu komponentlarni rivojlantirish uchun interfaol metodlardan keng foydalanish tavsiya etiladi. Xususan, “aqliy hujum” (brainstorming), “klaster”, “INSERT”, “Baliq skeleti” (Fishbone), “Venn diagrammasi” kabi metodlar o'quvchilarning faol

fikrlashiga turtki beradi. Masalan, “aqliy hujum” metodida o‘quvchilar berilgan muammo yuzasidan erkin fikr bildiradi, bu esa ularning ijodiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi. “Venn diagrammasi” esa ikki yoki undan ortiq tushunchalarni taqqoslash orqali o‘quvchilarda analitik tafakkurni shakllantiradi. Shuningdek, savol-javob metodidan to‘g‘ri foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchi tomonidan beriladigan savollar reproduktiv emas, balki tahliliy va muammoli xarakterga ega bo‘lishi kerak. Masalan, “Nima uchun?”, “Qanday qilib?”, “Agar boshqacha bo‘lsa, nima bo‘lardi?” kabi savollar o‘quvchilarni chuqurroq fikrlashga undaydi. Benjamin Bloom taklif etgan taksonomiyaga ko‘ra, aynan yuqori darajadagi savollar (tahlil, sintez, baholash) o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Bundan tashqari, dars jarayonida muammoli vaziyatlarni yaratish ham samarali usullardan biridir. Muammoli ta‘lim texnologiyasi o‘quvchilarda mustaqil izlanish, sabab-oqibat aloqalarini aniqlash va yechim topish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa o‘quvchini passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ham tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda katta imkoniyatlar yaratadi. Elektron resurslar, multimediali taqdimotlar va onlayn platformalar orqali o‘quvchilar turli manbalarni solishtirish, axborotni tahlil qilish va mustaqil xulosa chiqarishga o‘rganadi. Bu jarayon ularning raqamli savodxonligini ham oshiradi. Shu bilan birga, o‘qituvchining metodik mahorati hal qiluvchi ahamiyatga ega. O‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki yo‘naltiruvchi, fasilitator rolini bajarishi zarur. U o‘quvchilarning fikrini hurmat qilishi, erkin muhokama muhitini yaratishi va har bir o‘quvchini faollikka undashi kerak. Faqat shundagina tanqidiy fikrlashni samarali rivojlantirish mumkin bo‘ladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish zamonaviy ta‘lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tanqidiy fikrlash o‘quvchilarning nafaqat bilimlarni chuqur o‘zlashtirishiga, balki ularni tahlil qilish, baholash va amaliyotda qo‘llash qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa, o‘z navbatida, mustaqil fikrlaydigan, ijodkor va ongli shaxsni tarbiyalashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, boshlang‘ich ta‘lim jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda interfaol metodlar va innovatsion pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish zarur. Xususan, muammoli vaziyatlar yaratish, tahliliy savollar berish, guruhli ishlashni tashkil etish hamda vizual metodlardan foydalanish o‘quvchilarning fikrlash faoliyatini faollashtiradi. Shuningdek, o‘qituvchining metodik yondashuvi va pedagogik mahorati hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchi o‘quvchilarda erkin fikr bildirish muhitini yaratishi, ularni mustaqil izlanishga yo‘naltirishi va har bir fikrni hurmat qilish asosida ta‘lim jarayonini tashkil etishi lozim. Bu esa o‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirib, ularni faol ishtirokchiga aylantiradi. Tadqiqot natijalariga asoslanib, shuni ta‘kidlash mumkinki, boshlang‘ich sinflarda tanqidiy fikrlashni tizimli ravishda rivojlantirish orqali ta‘lim sifati sezilarli darajada oshadi. Shu bois, ushbu yo‘nalishda metodik tavsiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga keng joriy etish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish – bu nafaqat ta‘lim jarayonining samaradorligini oshirish, balki kelajakda ijtimoiy faol, ongli va raqobatbardosh avlodni shakllantirishning muhim shartidir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Bloom B. S. Taxonomy of educational objectives: the classification of educational goals. – New York: Longman, 1956. – 207 p.
2. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A. Ta‘limda innovatsion texnologiyalar. – T.: Fan va texnologiya, 2013. – 208 b.
3. Yo‘ldoshev J. G., Usmonov S. A. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: O‘qituvchi, 2004. – 160 b.
4. Xoliqov A. A. Pedagogik mahorat. – T.: Iqtisodiyot, 2011. – 240 b.
5. Azizxo‘jayeva N. N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat – T.: TDPU, 2006. – 192 b.